

YEVROPADA UYG'ONISH DAVRIDAGI TILSHUNOSLIK

*Andijon Davlat Chet tillari instituti
Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi
Va tarjimashunoslik fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish, Xitoy tili
yo'nalishi 102-guruh talabasi
Usmonjonova Odilaxon
Ilmiy maslahatchi: Zaynobidinova I*

ANNOTATSIYA: Ushbu ishda Yevropada Uyg'onish davri (XV–XVIII asrlar) tilshunoslik taraqqiyotining asosiy bosqichlari, uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar hamda davr olimlarining ilmiy merosi tahlil qilinadi. Mazkur davrda antik merosga bo'lgan qiziqish ortib, yunon va lotin tillarini ilmiy o'rganish kuchaydi, milliy tillarning grammatikasi va lug'atlarini yaratish jarayoni boshlab berildi. Shuningdek, til materiallarini yig'ish, tasniflash va qiyosiy o'rganish bo'yicha ilk ilmiy yondashuvlar shakllanib, keyingi umumiy va tarixiy-qiyosiy tilshunoslik rivojiga mustahkam poydevor yaratildi.

Kalit so'zlar: Uyg'onish davri, Yevropa tilshunosligi, antik meros, milliy grammatikalar, leksikografiya, filologiya, qiyosiy tahlil, til materiallari.

ABSTRACT: This paper explores the main stages of linguistic development in Europe during the Renaissance period (15th–18th centuries) and analyzes the sociocultural factors that influenced its formation. During this era, interest in the ancient heritage significantly increased, leading to the expansion of scientific research on Greek and Latin. The emergence of national grammars and dictionaries, as well as the systematic collection and classification of linguistic data, played a crucial role in shaping modern linguistic thought. These early approaches formed a strong foundation for the later development of general linguistics and the historical-comparative method.

Keywords: Renaissance, European linguistics, ancient heritage, national grammars, lexicography, philology, comparative method, linguistic data.

Yevropada Uyg'onish davri tilshunosligi XV–XVIII asrlar oralig'ida shakllanib, ilm-fan rivojida ulkan burilish yasagan davr sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda feodalizmning tanazzuli, kapitalizmning yuzaga chiqishi, Buyuk geografik kashfiyotlar va antik madaniyatga qaytish jarayonlari ilm-fanning barcha sohalariga, jumladan tilshunoslikka kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Uyg'onish davri olimlari yunon va lotin tillarini qayta o'rganib, antik davr filologiyasining ilmiy asoslarini tikladilar. Milliy tillarning mavqei oshib, ularni ilmiy asosda o'rganish zarurati paydo bo'ldi. Natijada nemis, fransuz, ingliz, slavyan, chex,

polyak, ispan va boshqa ko‘plab tillarning ilk grammatikalari yaratildi. Shuningdek, til materiallarini yig‘ish, tasniflash, qiyoslash kabi ilmiy yondashuvlar shakllanib, lug‘atchilik (leksikografiya) keng rivojlandi. Bu jarayonlar keyinchalik umumiy tilshunoslik va tarixiy-qiyosiy tilshunoslikning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa Uyg‘onish davri tilshunoslik tarixida fundamental o‘rin egalladi. Yevropada Uyg‘onish davri tilshunosligi til ilmining rivojida muhim o‘rin tutadi. Ushbu davrda antik merosning qayta tiklanishi, yunon va lotin tillarining chuqur o‘rganilishi, milliy grammatikalar va lug‘atlarning yaratilishi tilshunoslikning ilmiy fan sifatida mustahkamlanishiga xizmat qildi. Til materiallarini tizimli yig‘ish va qiyosiy o‘rganish kabi tamoyillarning shakllanishi esa keyingi asrlarda tarixiy qiyosiy tilshunoslikning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Shu bois Uyg‘onish davri tilshunoslik fani tarixida yangi ilmiy bosqichni boshlab bergan davr sifatida baholanadi va bugungi tilshunoslik nazariyasining ko‘plab tamoyillari aynan shu davr merosiga tayangan holda shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Aldegund I.K., Fater I.S. Mitriyad yoki umumiy tilshunoslik. — Berlin, 1694.
2. Bacon F. Novum Organum. — London, 1620.
3. Descartes R. Discours de la méthode. — Paris, 1637.
4. Gervasiy L. Ma’lum xalqlar tillarining katalogi. — Madrid, 1800–1804.
5. Rasulov R., Karimov Sh., Mo‘minov B. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2013.